

IJTIMOIY TARMOQLARNING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI

*Xudayberdiyeva Dilafruz Izzatillayevna**Andijon tumani 3-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar psixologiyasiga ta'siri, ularning ruhiy holati, xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlariga ko'rsatadigan ijobiy hamda salbiy jihatlari tahlil qilinadi. Zamonaviy axborot makonida yoshlarning o'zini anglash jarayoni, muloqot madaniyati va shaxs rivojiga ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardan oqilona foydalanishning psixologik ahamiyati va profilaktik yondashuvlar ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tarmoqlar, yoshlar psixologiyasi, internet, muloqot, o'zini anglash, emotsional holat, axborot makoni, psixologik ta'sir.

KIRISH

Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylangan bo'lib, ayniqsa yoshlar orasida keng ommalashgan. Bugungi kunda internet orqali muloqot qilish, ma'lumot almashish va o'z fikrini ifoda etish yoshlar hayot tarzining muhim elementi hisoblanadi. Bu jarayon ularning dunyoqarashi, qadriyatlari va psixologik rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy jihatlardan biri – yoshlar uchun keng axborot olish imkoniyatining mavjudligidir. Ular turli sohalar bo'yicha bilimlarini oshiradi, o'z qiziqishlariga mos guruhlar va hamjamiyatlarga qo'shiladi, ijodiy faoliyatini namoyon etadi. Bu esa shaxsning o'zini anglashiga va ijtimoiy faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta'siri ham mavjud. Vaqtni samarasiz sarflash, real muloqotning kamayishi, o'zini boshqalar bilan solishtirish natijasida o'ziga ishonchning pasayishi kabi holatlar kuzatilishi mumkin. Ba'zan salbiy axborot oqimi yoshlarning ruhiy holatiga bosim o'tkazadi, hissiy beqarorlikni kuchaytiradi.

Yoshlar psixologiyasiga ta'sir etuvchi yana bir omil – virtual muloqotning ustunligi hisoblanadi. Internet orqali muloqot qilish oson va qulay bo'lsa-da, yuzmayuz muloqot ko'nikmalarining sustlashishiga olib kelishi mumkin. Bu esa ijtimoiy moslashuv jarayoniga ta'sir etadi.

Ijtimoiy tarmoqlardan oqilona foydalanish yoshlarning psixologik salomatligini saqlashda muhim ahamiyatga ega. Vaqtni to'g'ri taqsimlash, foydali kontent tanlash, salbiy axborotlardan himoyalash va real hayotdagi muloqotni saqlab qolish muhim hisoblanadi. Ota-onalar va pedagoglarning nazorati hamda yo'naltiruvchi yordami bu borada ijobiy natija beradi.

Ta'lim muassasalarida media savodxonlikni rivojlantirish, internet madaniyatini shakllantirish va psixologik profilaktika ishlarini olib borish orqali yoshlarni ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta'siridan himoya qilish mumkin. Bu esa ularning sog'lom ruhiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar psixologiyasiga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi zamonaviy omillardan biridir. Ularning ijobiy imkoniyatlaridan samarali foydalanish, salbiy ta'sirlarini kamaytirish va ongli foydalanish madaniyatini shakllantirish yoshlarning barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda hayotimizni internetsiz tasavvur qilish juda mushkul. Internet dunyoning turli nuqtalarida yashovchi odamlarning o'zaro muloqotini hamda axborot almashinuvini mukammal darajada osonlashtirdi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha internetdan eng ko'p foydalanuvchilar aynan 21 dan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar hisoblanar ekan. Xalq tilida internet - o'rgimchak to'ri. Mening nazarimda esa ijtimoiy tarmoq - dengizga o'xshaydi. Unda suzish ham, cho'kish ham o'zimizga bog'liq. Lekin internetning bugungi kundagi rivoji yoshlarga g'oyaviy ta'sir o'tkazishning miqyosi keskin darajada o'sishiga olib keldi. Aynan shu taraqqiyot vositasidan foydalanib, qalblarni zabt etishda diniy omilning roli yuqori. Shuning uchun ham turli diniy-ekstremistik va terrorchi uyushmalar o'z g'oyalarini targ'ib qilishda internetni eng samarali vosita sifatida qo'llamoqda. Shu sababli biz yoshlar bu g'oyalarga chalg'imasdan, to'g'ri mulohaza qilib ilm o'rganish yo'lida yurishimiz kerak. Jumladan, Chingiz Aytmatov shunday yozadi: "Tuya terisini odamning taqir boshiga kiydirish shart emas. Endi sodir bo'ladigan urushlar jang maydonida emas, balki mafkura poligonida yuz beradi. Shu jihatdan qaraganda, yoshlarning ko'p vaqtini internetda behuda sarflashi katta fojiaadir".

Internet tizimining ijtimoiy tarmog'idan olingan narsa to'g'ri, ishonchli va zararsiz ekanini bilish kerak. Yaxshi-yomonning farqiga bormagan ba'zi yoshlar ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilgan har qanday ma'lumot, xabarlarini haqiqat deb qabul qilayotgani jiddiy xavotirga solmoqda. Hackerlar o'zlarining g'arazli maqsadlari yo'lida yoshlarda buzg'unchilik, begunoh odamlar qonini nohaq to'kish kabi jinoyatlarni avj oldirib, fuqarolar tinchligini buzib, xalq orasida nizo chiqarishga harakat qilishmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Ma'naviyat va ma'rifat ishini vatanparvarlik ishi, vijdon ishi" ekanligi to'g'risidagi qarashlarining mazmun-mohiyatini har bir fuqaroga, xususan, yoshlar ongi, qalbi va ichki dunyosiga singdirish zarur. Sarhadsiz internet dunyosiga kirgan yoshlar vaqt, umr g'animat ekanini doimo yodda saqlamog'i lozim.

Virtual muloqotning avj olishi jonli muloqotga bo'lgan ehtiyojning pasayib ketishiga sabab bo'lmoqda. Shuni aytish kerakki, bugungi kunda jamiyatimizda o'zining doimiy ko'rishib turadigan yaqinlari bilan ham ijtimoiy tarmoqlarda muloqot

qiluvchi insonlar ko'pchilikni tashkil etmoqda. Bunday muloqot esa real voqelikdan ayri holda kechadi va inson o'zining hissiy kechinmalarini tasvirlab bera olmaydi.

Yoshlar kamolotiga, ularning hulqatvoriga va intellektiga bir qancha omillar ta'sir etadi. Bu o'rinda esa albatta, jamiyatda alohida nufuzga ega bo'lgan internet vositalarining roli beqiyosdir. Muhtaram Prezidentimiz I.Karimov o'zlarining bir qator ma'ruzalarida "Biz butun dunyoni qurshab olgan internetni cheklay olmaymiz" – deb ta'kidlab o'tganlar. Demak, biz farzand tarbiyasida uning yuksak ma'naviyatli, axborot madaniyati iste'molida mustahkam ma'naviy immunitetga ega, Vatan va milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida hamda puxta bilim egasi qilib tarbiyalab borishimiz lozim.

Yana bir inobatga oladigan jihati shundaki internetdan, xususan ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadigan keng qamrovli foydalanuvchilar yoshlardir. Jamiyat kelajagi deb e'tirof etiladigan, Kelajagimiz bunyodkorlari sifatida qaraladigan avlodning eng qimmatli boyligi vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda behuda sarflab yuborayotganlarini jim kuzatish juda achinarli holatdir. Aslini olganda maqsadli foydalanilsa internet tarmog'ining foydali jihatlari juda keng albatta. Ammo bu mavjud imkoniyatlardan yoshlarning ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatish yo'lida foydalanadigan g'arazli kuchlar ham yo'q emas. Shundan kelib chiqib aytishim mumkinki yosh avlodni ushbu mafkuraviy ta'sirlardan asrash eng dolzarb masaladir. Sababi yoshlar ongi hali himoyalangan tashqi, mafkuraviy tahdidlardan muhofaza qilinmagan bo'ladi. Ularning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishi esa ularning ongiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmay qo'ymaydi. Chunki ijtimoiy tarmoqlardagi kontentlarning juda katta qismi ma'naviy jihatdan past darajadagi kontentlardir. Ularni kuzatib boradigan yoshlarning ma'naviy tushunchasiga juda salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli biz iloji boricha yoshlarni ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishiga juda qattiq ta'sir ko'rsatishimiz kerak. Ularga mobil qurilmalardan foydalanishni cheklashimiz, internet tarmog'iga kiradigan qurilmalardan uzoqroq tutishimiz kerak. Ularni kitob bilan do'st qilishimiz uchun imkonimiz yetgan har bir ishlarni qilishimiz qat'iyan talab etiladi. Hindistonda bir sartarosh o'z ishxonasiga ko'plab kitoblarni yig'ib, navbat kutib turgan vaqtda kitob o'qigan xaridorlariga chegirmalar qilib berish bilan shug'ullanishi haqidagi hikoyani o'qib juda chuqur o'yga toldim. Nimagaki? Har bir inson mamlakat rivoji uchun juda kichik bo'lsada o'z hissasini qo'shishi mumkin ekan. Biz o'z kelajagimiz bo'lgan yoshlarni bo'sh vaqtini unumli foydalanishi uchun ularni kitobga bo'lgan muhabbatini oshirishimiz lozim. Nafaqat kitobga balki Vataniga, diniga bo'lgan muhabbatini ham oshirmog'imiz lozim. Interent, uyali telefon, ijtimoiy tarmoq orqali muloqot va axborot almashinuvga xizmat qiluvchi faysbuk, tvitter, vayber, telegram kabi dasturlar shular jumlasidandir. Ilm-fanning yutug'i bo'lmish bu yangiliklar insonlarning uzog'ini yaqin, mushkulini oson qilayotgani shubhasiz. Shu bilan birga, bu kashfiyotlar olis masofadan turib ilm olish,

dunyo yangiliklaridan bir zumda voqif bo'lish va ma'lumotlarni oson tarqatish imkonini ham beradi. Biroq, keyingi yillarda mazkur tarmoqlarning yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan jihatlari ham ko'zga tashlanayotgani ko'pchilikni tashvishga solishi tabiiy. Chunki, keljagimiz poydevori bo'lgan yoshlarning soatlab bu tarmoqlarda maqsadsiz o'tirishi ilm olish, kasb-hunar egallash va boshqa xayrli ishlarga sarflanishi kerak bo'lgan guldek umrining behuda va besamar ketishiga sabab bo'ladi. Qolaversa, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan ma'lumotlarning katta qismini yoshlar ma'naviyatining tubanlashuviga turtki bo'luvchi, milliy va diniy qadriyatlarimizga zid bo'lgan xabarlar, urf-odatlar tashkil etadi. Bu esa, Internet, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa zamonaviy telekommunikatsiya yutuqlaridan foydalanish tizimini tartibga solish, ularning imkoniyatlaridan oqilona istifoda etish, muayyan odob-axloq qoidalarga amal qilish zaruratini keltirib chiqarmoqda...

Ijtimoiy tarmoqlar orqali inson ongi va dunyoqarashini o'zgartirish maqsadida g'oyaviy, mafkuraviy ta'sir o'tkazish, dizinformatsion axborot tarqatish kabi holatlar, ayniqsa, hushyorlikni talab etmoqda. Axborot xurujida inson ongi, millat ruhiyati nishonga olinadi.

Aslini olganda, axborot xurujlarini amalga oshirishda, avvalo, inson ongi va qalbini zabt etish orqali mafkuraviy ta'sir o'tkazish g'oyasi yotadi. Mazkur holat davlatlarning barqarorligiga raxna solib, millatning tarixan shakllangan qadriyatlari, uning o'ziga xosligi, millat va xalq sifatida yashab qolishini xavf ostiga qo'yadi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali g'oyaviy mafkuraviy tahdid sifatida namoyon bo'layotgan yovuz va buzg'unchi g'oyalari ta'sirini o'z vaqtida anglash, ulardan doimo ogoh bo'lish bugungi kunning dolzarb vazifasi ekanini har bir yurtdoshimiz, birinchi navbatda, yosh avlod vakillari chuqur anglab etishlari lozim bo'ladi.

Kitob o'qish – inson tafakkurining ozuqasidir. Bu haqda Prezident Shavkat Mirziyoyev ham o'z nutqlarida bir necha ta'kidlagan. “Kitob o'qigan, o'zini ustida ishlagan odamda qanot bo'ladi. U befarq bo'lmaydi. Uning kuchi bilimida bo'ladi. Shuning uchun hech kimni pisand qilmaydi. “Kattalar”ga xushomad qilmaydi. Uning bilimi bor, ilmi bor. Mana nima uchun kitob o'qinglar deymiz. Kitob o'qisangiz savol berishni bilasiz”, degan edi davlat rahbari. Shunday ekan biz uchun benihoya qadrlil bo'lgan vaqtimizni behuda sarflamasligimiz, kelajagimiz uchun foydali bilimlarni olishimiz. Bizga mutlaqo keraksiz bo'lgan ijtimoiy tarmoqlardan voz kechib, mamlakatimiz taraqqiyoti yo'lida tinmasdan bilim olishimiz zarur.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytmoqchimanki, jamiyatimiz hayoti fan-texnologiyalar rivoji bilan tobora uyg'unlashib borayotgan bir davrda yashamoqdamiz. Shunday ekan, har birimiz ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatiga amal qilishimiz kerak. Yoshlarning ruhiy-ma'naviy olamini turli xil buzg'unchi va zararli g'oyalardan himoya

qilish orqali taraqqiyot poydevori yaratiladi. Zero, ma'naviy barkamol, intellektual salohiyatli avlod tarbiyasi eng muhim vazifalardan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'XATI:

1. Aytmatov Ch. "Asrga ta'tigulik kun" romanidan.
2. Mirziyoyev Sh. 2020-yil 27-yanvarda bo'lib o'tgan yoshlar bilan o'tkazilgan videoselektoridan.
3. Ташиметов Т. Х. 2020. Academic Research in Educational Sciences, 13.
4. Alimov A. Toshkent shahar islom akademiyasi.
5. Ziyonet